
Farg'ona shahar hokimligining bildirishi

Feysbuk tarmog'ida Farg'ona shahar, Sayilgoh ko'chasida joylashgan "Makro" supermarketi oldida avtomashinalar harakatlanishi ta'qiqlanganiga qaramay, mashinalar to'planib qolganligi haqida xabar tarqatilgan.

Ushbu holat tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'rganib chiqildi.

Asosan xarid uchun kelganligi mazkur avtomashinalar joriy etilgan tartib rioya qilinmayotgani aniqlangan. Ushbu qoidabuzarlik holatlariga tegishli dalolatnomalar tuzilib, tegishli choralar belgilandi.

Ichki ishlar yo'l patrul xizmati, Milliy gvardiya xodimlari tomonidan shahar hududida ovoz kuchaytirgich moslamalari bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bormoqdalar.

Fuqarolarimizdan iltimos qilardikki, shaxsiy maqsadlarda yoki bemavrid ko'chaga chiqmasliklari, ayniqsa, avtomashinalari bilan ko'chada yurmasliklarini so'raymiz.

2020-03-31 17:42:44